

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>G.Jo'rayeva</b>	
Firoqiy va Partav .....	314
<b>Z.Teshabojeva</b>	
Abduqayum yo'ldoshning obraz yaratish mahorati .....	318
<b>N.J.Abdusamatova</b>	
Katta va tayyorlov guruh bolalari nutqini rivojlantirish jarayoniga integrativ yondashuv orqali maktab ta'limiga tayyorlash samaradorligini ta'minlash .....	322
<b>Sh.A.Ermatova</b>	
Erkin Vohidovning "Nido" dostonini o'qitishda "Blum taksonomiyasi" dan foydalanish .....	326
<b>M.J.Jurabojeva</b>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qo'shiqlarni tinglash va tahlil etishga o'rgatishning o'ziga xosligi .....	331
<b>Sh.M.Usanov</b>	
O'zbekistonda millatlararo hamjihatlik va totuvlikning ta'minlanishida milliy madaniy markazlarning o'rni.....	334
<b>V.A.Giyosova</b>	
Glyuttonimlar bilan ifodalangan bolalarga oid murojaat birliklari .....	339
<b>Г.Р.Абдуллаев</b>	
Социокультурные и этнические особенности в развитии молодёжи в узбекских семьях под влиянием опыта пожилых.....	342
<b>J.Sh.Amayusupov</b>	
Bo'lajak pedagoglarda analitik tafakkurni rivojlantirish bosqichlari.....	345
<b>M.T.Voxidova</b>	
Abu Nasr Forobiy asarlarida insonparvarlik masalalari .....	350
<b>N.M.Xodjibolajeva</b>	
Jadid mutafakkirlarining qarashlari asosida talabalarning ekologik kompetentligini rivojlantirishning ilmiy-pedagogik imkoniyatlari .....	354
<b>Sh.M.Muxamedov</b>	
Materialshunoslik fanining elektron-dasturiy va metodik ta'minotini takomillashtirish.....	358
<b>S.I.Raxmatullajeva</b>	
Farg'ona viloyati axborot kutubxona markazi faoliyati tarixi .....	371
<b>M.A.Junaydullajev</b>	
Buxoroda jadidchilik harakatining vujudga kelishi tarixiy shart-sharoitlari .....	377
<b>M.M.Temirova</b>	
Ichki ishlar profilaktika inspektorlarining jamoat tartibini saqlash va xavfsizligini ta'minlashda asosiy vazifalari va funksiyalari .....	382
<b>M.U.Kurbanov</b>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablari pedagogik jamoasini maqsadli boshqarishda ergonomik yondashuv .....	387
<b>M.O.Batirkhanova</b>	
Badiiy asarlardagi somatik frazeologik birliklar tarjimasining kommunikativ-pragmatik xususiyatlari .....	391
<b>M.C.Ganieva</b>	
Особенности социально-философских взглядов по развитию женского предпринимательства.....	395
<b>I.A.Ismoilov</b>	
Jazo tushunchasi va uning mazmun-mohiyati xususida .....	401
<b>D.G'.Zaylobidinova</b>	
Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining kasbiy o'zini-o'zi rivojlantirishning metodik tizmi .....	405
<b>D.A.Abduraxmonov</b>	
Bo'lajak pedagoglarda kreativlik ko'nikmalarini rivojlantirish masalasiga doir .....	408
<b>M.M.Yunusov</b>	
Universitetlarda "Kimyoviy texnologiya" fanini fanlararo bog'lanish asosida o'qitishning pedagogik-psixologik jihatlari .....	416
<b>G'.M.Alamov</b>	
Sog'lom turmush tarzini to'g'ri tashkil qilishda xalq o'yinlarining o'rni.....	420

## FIROQIY VA PARTAV

## ФИРОКИЙ И ПАРТАВ

## FIROKIY AND PARTAV

Jo'rayeva Go'zal<sup>1</sup><sup>1</sup>Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada Do'stmuhammad Firoqiyning tasavvufga munosabati ayrim she'rlari misolida tahlil qilingan. Firoqiyning bir g'azali tahlili orqali uning so'fiyona she'rlar yozish salohiyati haqida mulohazalar bildirilgan. G'azaldagi tasavvufga tegishli so'z va birikmalar, so'z-timsollar misolida muallifning bu boradagi mahorati xususida xulosa chiqarilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье анализируются некоторые стихотворения Дусмухаммада Фирокия, относящиеся к суфизму. А о его писательских способностях были высказаны особые идеи и мнения, основанные на анализе одной из газелей поэта. Кроме того, на примере использованных в нем слов и словосочетаний, а также символов сделан вывод о мастерстве автора в этом плане.*

**Abstract**

*In this article, some of poems Dusmuhammad Firoqiy are analysed which related to Sufism. There have been given discusses about Firokiy's writing skills in this way by his one of the ghazals. In addition, a conclusion was made about the author's skill in this regard, using the examples of words and phrases, and symbols that were used in it.*

**Kalit so'zlar:** Tasavvuf, zulma'naynlik, sabab, oqibat, so'z, so'zning irfoniy kuchi, so'z-timsol, timsollarning tasavvufga aloqasi, riyozat, ta'sir, tasvir, yangicha talqin, mehnat, mahorat.

**Ключевые слова:** Суфизм, причина, результат, слово, мистическая сила слова, слово-символ, символы суфизма, испытание, эффект, образ, новая интерпретация, умение.

**Key words:** Sufism, reason, consequence, word, the mystical power of the word, word-symbol, symbols of Sufism, test, effect, image, new interpretation, skill.

**KIRISH**

XX asr devonchiligi asrlar mobaynida bir qolipda kelgan Sharq devonchiligidan biroz farq qiladi. Qo'qon shoirlarining bu davrda tartib bergan devonlari, aniqrog'i, qo'lyozmalari "devon" deb yuritilsa ham, ularning ayrimlari an'anaviy devonchilikdan debochaniing yo'qligi, alohida nomlanmasligi, janrlarning tartibidagi o'zgarish, nasriy asarlarning ham undan joy olishi kabi farqlari bilan ajralib turadi. Buning ayrim sabablari esa, devonchilikka e'tiborni susayishi, aruziy she'riyatning oqsashi va barmoq she'riyatning oldingi rejaga chiqib borishi, nasrning ham ustuvor bo'la borishi bilan izohlanadi. Do'stmuhammad Firoqiyning qo'limizdagi dasxat "devon"i ham bundan mustasno emas.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI**

Do'stmuhammad Firoqiy hayoti va ijodiy faoliyati yaxlit tadqiqot manbasi sifatida o'rganilmagan bo'lsa-da, Sharq qo'lyozmalari kataloglari, shuningdek, ayrim ilmiy tadqiqot va maqolalarda shoirning shaxsi, hayoti va ijodiga doir ba'zi bir ma'lumotlar havola etilgan. Qo'qon adabiy muhitining bilimdoni Po'latjon Qayumovning "Tazkirayi Qayumiy" tazkiraning ikkinchi qismi 6-fiqrasi shoirga bag'ishlangan. "Firoqiy – bu shoir asli Chust qasabasidan bo'lib, 1891nchi yilda kosib oilasida dunyoga kelmishdir. Nomi mulla Do'stmuhammad bo'lub, mulla Hojimuhammad o'g'lidir. Boshlang'ich maktabning bitirgach, Xo'qand shaharida Zanjirli madrasasida tahsil etmishdur. She'rda ustoz mavlono Zarra va ilmida ham ustoz bo'lmishdur. Ota kasbi bo'lmish qassoblig' ila umrguzaron mashg'ulotda bo'lub, Xo'qand shaharida Sarmazor dahasida Toshkandlik mahallada Yangi hayot ko'chada istiqomat ila na'sh-u namo etmoqdadur. Shaharimizning atoqli shoirlaridan biri hisoblanadur. Axloqi hamida, sohibi mehr-u muhabbatli bo'lub, xushxat, xushxon, latifatgo'y, xushshabat kishidur".

Ishda biografik tahlil metodidan, shuningdek, tarixiy madaniy metoddan foydalanildi.

**TAHLIL VA NATIJALAR**

To'plamda Mavlono Firoqiyning Partav haqidagi nasriy ma'lumoti va unga bag'ishlangan she'ri mavjud, Uning nasriy qaydlarida Partav haqida ham hayrat, ham xavas bilan to'lib-toshib so'z

yuritiladi. Ayniqsa, uning “Partavning hikoyasi boshlanib, she’rshunos, abiyotshunoslar shunday-shunday ta’rif qildilarkim, Partavgo o’xshogon shoir onodin tug’ulgon emas, chunki o’zi sholcho’loq, qo’li tutmas, ko’zi ko’r, yo’lini bazo’rgina topib yura oladi. Xat yoza olmaydi. Lokin she’r aytishga binihiyat ajib. Forsi, turkiy, arabiy – hammasig’a barobar, besh olti misra she’rlaridan o’qib berdilar. Eshitib hayratda qoldim”[4:82], deb o’z hayajonlarini bayon etgan. Bu qaydlarga ko’ra aytish mumkinki, Partav jismonan nogiron bo’lsa-da, ma’nan yuksak iqtidorga ega bo’lgan inson ekan. Uning Alloh ato etgan iste’dodi davrning she’rshunoslari, hatto she’r ixlosmandlari tomonidan e’tirof etilgani Firoqiy e’tiboridan chetda qolmagan [3:491]. Uning qayd qilishlaricha, ko’zi mutlaqo ko’rmaydigan, oyoq-qo’li tutmaydigan, bir so’z bilan aytganda, jisman nogiron bo’lgan bu zot forsiy, turkiy, arabiy tillarni chuqur bilgan, shu tillarda bir-biridan go’zal she’rlar bitgan. To’g’ri, Sharq va G’arb adabiyoti tarixida Partavga o’xshagan qalamkashlar yashab, badiiy ijod bilan mashg’ul bo’lganlar. Bunday shoirlardan biri Adib Ahmad bo’lib, bu zot haqida Hazrat Alisher Navoiy “Nasoyim ul-muhabbat fi shamoyim ul-futuvvat” tazkirasida ma’lumot bergan. Uning ko’zlari butov (ko’z kosasi go’sht bilan bitib ketgan), biroq ko’ngil ko’zi ochiqligini ta’kidlagan Alisher Navoiy, uning haqida loviyani ko’rsatganlarida odamning buyragiga o’xshashligi, no’xat donini qo’llariga tutqazganlarida, itolg’u degan qushning boshiga o’xshashligini aytib o’tganligi haqidagi ikki rivoyat ham keltirganlar[5:20]. Adib Ahmaddan “Hibat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar armug’oni”) degan bir epik asar yetib kelganligi, bu asar pandnoma mazmunda bo’lib, ahli ilm tomonidan she’riy didaktik asar sifatida baholangan. Payg’ambarimiz Rasulilloh (s.a.v.) sunnatlari (hadislari)ning she’riy sharhi ekanligi sharqshunoslar tomonidan e’tirof etilgan. Garchi Firoqiy Adib Ahmad Yugnakiyni tilga olmagan bo’lsa ham, Partavning mo’jizaviy iste’dodiga tan berib, aytgan so’zlari Adib Ahmadni eslatadi. Shundan keyin bir izdihomdan so’ng Firoqiyning otasi Chustga kelgan shoir Partavni o’z xonadoniga taklif qilib, ziyofat bergani, shu ziyofatda ahli muhabbatlar (tariqatga kirgan taqvodor kishilar) eshon boboning (bu kalima, bizningcha, Firoqiyning tasavvuf ahllari avlodidan ekanligiga ishora qiladi. – G.J.) bir o’g’lining she’r yozishga salohiyati bo’lib, “Firoqiy” taxallusi bilan uncha-muncha she’r mashq qilib turishini tilga oladilar. Sal keyinroq Mavloni Firoqiyning o’zlari shoir Partavni izlab Namanganga boradi va uni topadi: “Qozixona masjidini(ng) ro’barasida, bir dukonni(ng) oldida bir buryoni ustida o’lturib, Shams Tabriziyning (Jaloliddin Rumiyning “Devoni kabir”iga kirgan abyotdan. Chunki bizning hududlarda Shams Tabriziy taxallusi bilan Jaloliddin Rumi yozgan g’azallar keng tarqalgan. - G.J.) g’azallaridan tarona qilib o’qib turubdur. Besh olti mo’ysafid ahli saloh kishilar to’xtab, quloq solib to’xtashi bilan Ali qadrhol sadoqot berib, ketdilar. Ba’daz men borib salom qildim. Javob salomdan keyin bevosita “Sho’ma az Chust?” - dedi. Men: “Ore!” - dedim. Daf’atan “Siz halifa bobom nistid (yemasmisiz)? (deb so’radi). “Ore!” - dedim. Mani umrida ko’rmagan, otimni bilmagan. (Shundan so’ng) “Qalam, qog’oz dori?” - dedi. “Doram”, - dedim. “Gir, navisi!” - dedi.

She’r:

*Muborakast maro in nazar ke vaqt-ye no’xo’s,t  
Chu aksi mehr duraxshanda did ta’lat do’st.  
Xush ast shahri Namongonlik tarif-ye u,  
Beruza omdan do’st-ye delpazir nekust.*

Tarjimasi:

“Bas, mamnun ruboiy”, - deb to’xtadi. Bu o’rtada bir boshqa kishi gapga soldi.

Ba’d az men ham qozixona masjid darvozaxonasida o’lturub, shu ruboiyni yozdim.

“Ruboiy shundan iborat edi:

*Bek didan maro oshufta kardi kahkashon Partav,  
Rubo shior naguyad didaho xunxo’shon Partav.  
Xudo dod ast bo to’ in z kohat bo kasi nadehad,  
Bamisli to’ nazoyid modari to’ dar jahon Partav -*

deb ruboiyni yozib bir kishiga berdim. Birov (notanish kishiga): “Shu xatni Partavga eltib bering. Egasi qani desa, u ketib qoldi, deng”- dedim. Nima der ekan, deb to’xtab turdim. Mazkur kishi (ruboiy) olib borib: “Partav, sizga bir odam bir xat berdi”, - deyishi hamon (u zot) “Qani, o’qib bering!” - dedi. Mazkur kishi o’qib berdi. Partav zavq qilib o’rnidan turib ketmoqchi bo’lib, ul kishi(dan) so’radi: “Xat sohibi qani?” Javob berdi: “Ketib qoldi”, “Hay, attang”, deganicha qoldi. Bu o’rtada yetti yil o’tkach, o’ttiz oltinchi yilda yana ikki kishi sayohat qilib, qasddan Partavni ko’rib kelmoqchi bo’lib, muayyan makoniga qidirib borsam, bo’zo’rg do’kon eshigi yo’q, oynasi yo’q, polosi yo’q; bir bo’ryo, bir eski po’stak, bir puchuq choynak, bir payola, bir obdasta sopol, Boshqa hech narsa yo’q. Uch marra qidirib borib, har borganimda ikki misra’-uch misra’ narsa yozib, besh-

o'n misra bo'lib qoldi. To'rtinchi borsam mazkur do'konda o'tiribdur. Daf'atan uzog'dan: "Assalom, ey shoiri otashi zabon!" - dedim. Hamono javobiga:

*Omadi az nazd mavlonoyi Chust,  
Didan-ye ro'yat maro bo sho'd do'ro'st.  
Xojimat qassobro farzande to',  
Qurratul ayn z ku delbande to'.  
To' ba man go'fti bashir, ya'ni beson.  
Assalom, ey shoiri otashzabon!*

Tarjimasi:

deb to'xtab: "Beyo, muloqot ko'nam. Diyatori do'st g'animat. Emruz baman mehmon miravi".

Shu yerda manga bir jazobot kelib, o'zimni to'xtata ololmay qoldim. Nafasimni rostlaganimdan (so'ng): "Mani bir sherigim bor", - dedim. Keyin: "Ahli muhabbat bo'lsa, sherigingni ham olib kel", - dedi. Man o'zga sherigim bor deganim ham yo'q edi. Yana hayratda qoldim. Ko'ngilga bir narsani berkitdim-da, hayal o'tmay, sherigimni olib keldim. Sherigim ham ziyorat qilgandan so'ng kulushib: "Qani mehmonga joy, choy, non, osh, polos?" - (dedim). "Ey san, holi ham g'o'r ekansan. Shirin muhabbatni o'zi ayni polos, taom emasmu? - deb borini oldimizga qo'ydi. Bir choynak choy, uch-to'rtta non - qotgan qutgan, bir piyola don. Choy ichmay turib, bir mo'ysafid kishi ozoda oq dasturxonga o'ralgan narsani olib kelib: "Eshoni Partav, mehmonlaringizga nasiba olib keldim", - deb ochdi. Bir tovoq oliyjanob palav - qo'yyog'ilik, sergo'sht. "Mana, Firoqiy, firoq qilmay hammasini yegil. Maqsading shul edi" - (dedilar). "Bas, ko'ngildagi tugun ham yechildi. Ixlosim haddin ziyoda bo'ldi", - deyishim bilan: "Al-arzu mahrumu (Yerdan mahrumimiz). Emdi qayta ko'rishmoq yo'q", dedi. Qazoro, biz Andijonga bilet olib qo'ygan edik. Xayrlashib vagzalga chiqib .Rahmatli pir o'ttiz oltinchi yili nima sababli jinoyat bilan qamalib turmada vafot qilibdir. Qolu - innallillahi va inna ilayhi rojiun".

Avliyo shoir Partav bilan bo'lgan bu uchrashuvning tafsilotlaridan so'ng, Firoqiyning ushbu she'ri keladi.

*Asssalom, ey shoiri otash zabon,  
Ishtiyiq ila kelib aziz tamon.  
Orzu shuldur: ziyorat aylamoq,  
Oxtarib ovora bo'lduk onchunon.  
Shul bilan to'rt marra keldim, yo axiy,  
Etmadilar hech bir hirad makon.  
Uyni burchida solig'lig' bo'ryo,  
Topmadim shoir janobidin nishon.  
Men gumon etdim shaharda yo'qmukin,  
Yo safar qildimu shahri Andijon.  
Yo biror mahbub yo'ldan ozdurub,  
Yo olib ketdimukin bir xanodon.  
Har qaerda bo'lsalar oliyjanob,  
.....  
Shundayin shoir onosi tug'magay,  
Xush farosat, zehni xo'b, tab'i ravon.  
Xoh turku tojiku, xohi arab  
Borasidon, bo juzi xo'b nuktadon.  
Quvvai hifzi nihoyatda baland,  
Sohibi ilmlardandur begumon.  
Oxtarib keldim Firoqida ani,  
Manzilini aylasun dorul-janon.*

She'r mazmuni nasriy qaydlar mazmuniga muvofiq tushadi. Mazkur she'rni bir ma'lumot-hikoya deb tushunish o'rinli. Negaki, nasriy qaydlardagi ma'lumotlar she'rda o'z mujassamini topgan.

#### XULOSA

Firoqiyning Partav haqida yozganlarining ikkita qimmatini mavjud. Birinchidan shoir va avliyo Partav o'z davrinig valiy zotlaridan bo'lib, badiiy ijod bilan ham mashg'ul bo'lgani, o'zbek, tojik, arab tillarida uxroviy - ko'proq din, tasavvuf, zuhd, taqvo yo'nalishlarida she'r aytganini bilish va ayni paytda, bu hislatlar uning boshiga ko'p tashvishlar keltirgani, o'tgan asrning 30-yillaridagi

qatag'onning benihoya shafqatsiz bo'lganidan darak beradi. Tafakkur qilinsa, bu mulohazada jon borgan o'xshaydi. Shunday nogiron (na ko'zi ko'ra oladi, na qo'li tuta oladi va na oyog'i yura oladi) Eshoni Partav qamalibdimi, demak, o'sha yillar qatag'onining dahshatini ayni shu hodisot orqali to'la his qilish mumkin. Qolaversa, keltirilgan voqelik Firoqiyning asl siyrati - e'tiqodi hamda shoirlik salohiyati borasida ham ma'lumot beradi.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Комилов Н. Тасаввуф. 1-,2-китоб. – Т.: Ўзбекистон – Моворауннахр, 2009.
2. Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърият. –Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1991.
3. Қаяюмов П. Тазкирайи Қаяюмий.
4. Фурқат Танланган асарлар. Икки томлик. Биринчи том. – Т.:Бадий адабиёт нашр., 1960.
5. Фироқий девони (қўлимиздаги дастхат тўплам).